




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

3 (65) 2024

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛИОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

3 (65)

2024

март

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.02.2024, Accepted: 10.03.2024, Published: 20.03.2024

UO'K 6:61:613:613.2:613.2.03:613.2.038

SURUNKALI GEPATIT VA JIGAR SIRROZI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR OVQATLANISHINI BAHOLASH

Shamuratova Nodira Shanazarovna <https://orcid.org/0009-0001-9555-1002>
Sharafaddinova Gulbahor Rashidovna Email: SharafaddinovaG@mail.ru

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali O'zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri,
Al-Xorazmiy ko'chasi 28-uy Tel: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Rezyume*

Sog'lom ovqatlanish inson salomatligi uchun muhim bo'lib, haqqoniy ovqatlanishni o'rganish kasalliklarni kelib chiqishi va ularning profilaktikasida muhimdir. Jami 125 ta surunkali jigar kasalliklari (surunkali gepatit - 47 ta, jigar sirrozi - 78 ta) bor bemorlarda JSST tomonidan tavsiya etilgan so'rovnoma asosida o'rganildi. Natijalar bemorlarning ovqatlanish jarayonida hayvon yog'ini, go'sht mahsulotlarini ko'p iste'mol qilishi, sut mahsulotlari va vitamanga boy bo'lgan ho'l meva va sabzavotlarni kam iste'mol etilishi, ayniqsa, surunkali gepatit bilan og'rigan bemorlarga ko'ra jigar sirrozi bilan og'rigan bemorlarda ko'proq aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlarni diagnostik ahamiyati mavjud va ularga mos diyetoterapiya tavsiyasi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: haqqoniy ovqatlanish, diyeta, jigar sirrozi, surunkali gepatit, sog'lom ovqatlanish.

ОЦЕНКА ПИТАНИЯ У БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКИМ ГЕПАТИТОМ И ЦИРРОЗОМ ПЕЧЕНИ

Шамуратова Нодира Шаназаровна <https://orcid.org/0009-0001-9555-1002>
Шарафаддинова Гулбахор Рашидовна Email: SharafaddinovaG@mail.ru

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии
Узбекистан, Хорезмская область, город Ургенч, улица Ал-Хорезми №28
Тел: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Резюме*

Здоровое питание имеет важное значение для здоровья человека, а правильное питание важно для возникновения и профилактики заболеваний. В общей сложности 125 пациентов с хроническими заболеваниями печени (47 с хроническим гепатитом и 78 с циррозом печени) были обследованы на основе вопросника ВОЗ. Результаты показали, что пациенты потребляли животный жир, мясные продукты чаще в своем рационе и низкое потребление молочных продуктов и богатых витаминами спелых фруктов и овощей, особенно у пациентов с циррозом печени по сравнению с пациентами с хроническим гепатитом. Эти показания имеют диагностическое значение и будут разработаны соответствующие рекомендации по диетотерапии.

Ключевые слова: правильное питание, диета, цирроз печени, хронический гепатит, здоровое питание.

NUTRITION ASSESSMENT IN PATIENTS WITH CHRONIC HEPATITIS AND LIVER CIRRHOSIS

Shamuratova N.Sh., Sharafaddinova G.R.

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy Uzbekistan, Khorezm region, Urgench city, Al-Khorezmi street No. 28 Tel: +998 (62) 224-84-84 E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Resume*

Healthy eating is essential to human health and learning about proper nutrition is important in the origin and prevention of diseases. A total of 125 patients with chronic hepatic diseases (47 with chronic hepatitis and 78 with hepatic cirrhosis) were examined on the basis of a WHO questionnaire. The results revealed that patients consumed animal fat, meat products more frequently in their diets, and low consumption of dairy products and vitamin-rich wet fruits and vegetables, especially in patients with hepatic cirrhosis compared with patients with chronic hepatitis. These indications are of diagnostic importance and appropriate diet therapy recommendations will be developed.

Keywords: true nutrition, diet, cirrhosis of the liver, chronic hepatitis, healthy eating.

Dolzarbligi

Surunkali jigar kasalliklarini davolashda farmokoterapiyadan tashqari diyetoterapiya va bemorlarning hayoti davomida haqiqiy ovqatlanish holati muhim ahamiyatga ega. Shu bois patogenetik ta'sirga ega bo'lgan yangi davolash usullarini izlanish dolzarbligicha qolmoqda. Kasallikni to'la-to'kis va patogenetik nuqtai nazardan davolashga qaratilgan davolash – profilaktika tadbirlari majmuasida parhyezli davolashni to'g'ri va maqsadli tarzda o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki asoslangan va to'g'ri belgilangan parhyez ovqatlanish boshqa (dori-darmon, fizioterapevtik) davolash usullarining samaradorligini oshiradi va uni kasallik remissiyasi davrida ham uzoq vaqt mobaynida tavsiya qilish mumkin. Shuningdek kasalliklarni rivojlanishida va klinik kechishida haqqoniy ovqatlanishni o'rganish ham jigar kasalliklari patogenezini yoritish va klinik kechishini tafovutlashda yordam beradi.

Jigar ovqatni hazm qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab metabolik o'zgarishlarni boshqarishda va ularning normal holatda kechishini taminlashda faol ishtirok etadi.

Ma'lumki, jigar kasalliklari ichida tez-tez uchrab turadigan surunkali gepatit kasalligida parhez davolash tadbirini to'g'ri uyushtirish uchun jigar kasalliklarining sabablari va klinik kechishiga ham e'tibor qaratilishi, uning dolzarbligining yechimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi : Surunkali gepatitlar va jigar sirrozi bilan og'rikan bemorlarda haqqoniy ovqatlanishning holatini baholash.

Material va uslublar

Kuzatuvda jigar kasalliklari bilan og'rikan jami 125 ta bemor bo'ldi. Ulardan 47 tasini surunkali gepatit bilan og'rikan bemorlar va 78 tasini jigar sirrozi bilan og'rikan bemorlar tashkil qiladi. Bemorlar 19-75 yoshda bo'lib, ularning o'rtacha yoshi $M + m = 55.9 \pm 2.1$ ni tashkil etdi.


Tadqiqot ishlarini olib borishda anketa (JSST tomonidan berilgan savolnoma), klinik, laborator, taomnomani ozuqaviy qiymatini aniqlash va biostatistika usullaridan qo'llanildi.

Natijalar va tahlillar


Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiya etgan savolnoma asosida 125 ta bemorlarda (78 ta surunkali gepatit, 47 ta jigar sirrozli) haqqoniy ovqatlanish holati o'rganildi va tahlil etildi. Bemorlarda tashxis klinik gepatologiyada qabul qilingan usullar (qonda umumiy bilirubin, ALT, AST, umumiy oqsil, virus antigenlari va UTT) yordamida tasdiqlandi. Kuzatuvdagi bemorlarning ovqatlanishini ya'ni, haqiqiy ovqatlanganligini o'rganish 24 soatlik ovqatlanish xronometraji asosida amalga oshirildi.

Kuzatuvda bo'lgan surunkali gepatitlar va jigar sirrozi bilan og'rikan bemorlarni qabul qilgan ovqatlanishlari jarayonida olingan ma'lumotlar quyidagicha:

Surunkali gepatit va jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda oqsilga boy mahsulotlarni iste'mol qilish holati:



Surunkali gepatit va jigar sirrozli bemorlarda uglevodga boy mahsulotlarni iste'mol qilish holati :



Jigar sirrozli bemorlarda yog'ga boy mahsulotlarni iste'mol qilish hayvon yog'lari (qo'y va mol) va margarin va sariyog' hisobiga surunkali gepatit kasalliklariga nisbatan o'rta miqdorda 20-25 % ko'p iste'mol qilinadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, oqsilga va yoqqa boy bo'lgan mahsulotlarni, ayniqsa, qo'y go'shtini ko'p iste'mol qilish – jigar sirrozi kasalliklarida surunkali gepatitlarga nisbatan 1,25 marta ko'proq iste'mol qilinishi va baliq mahsulotini kam iste'mol qilinishi aniqlandi. Uglevodga boy mahsulotlarni tahlil qilganda jigar sirrozli bemorlarning non mahsulotlarini 1,4, shirin gazlangan ichimliklarni iste'mol qilish 1,2, makaron mahsulotlari esa 1,5 hamda yoqqa boy mahsulotlarni 1,3 marta ko'p iste'mol qilinishi kuzatildi. Shuningdek surunkali gepatitli bemorlarda sabzavotli ovqatlar va ho'l mevalarni ko'proq iste'mol qilinishi kuzatildi.

Xulosa

1. Surunkali gepatit va jigar sirrozli bemorlarda haqqoniy ovqatlanish ko'pchilik ko'rsatkichlar bo'yicha me'yorida emas, ayniqsa oqsil va yog' mahsulotlari hisobiga
2. Sut va sut mahsulotlari, vitaminlarga boy ho'l meva va sabzavotlar iste'moli me'yordan kam.
3. Surunkali gepatit va jigar sirrozining rivojlanishida haqqoniy ovqatlanish holatidagi salbiy ko'rsatkichlar ahamiyatga ega va ularni optimallashtirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Валенкевич Л.Н., Яхонтова О.И. Болезни органов пищеварения. / Руководство по гастроэнтерологии для врачей. –СПб.: Издательство ДЕАН, 2006;656.
2. Гастроэнтерология. Стандарты медицинской помощи / сост. А.С.Дементьев, Н.И.Журавлева, С.Ю.Кочетков, Е.Ю.Чепанова / 2-е изд.перераб.и доп.. М.: ГЕОТАР-медиа, 2017;392.(серия "стандарты медицинской помощи")
3. Karimov Sh.I.Sog'lom ovqatlanish – salomatlik mezon. Toshkent 2015-yil.
4. Kalandarova G.D., Sh S.N. (2023). The laws of correct diet and the consequences of improper diet. // Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 2023;1(8):64-67.
5. Sh S.N., Shermetov R.A., Nurullayev S.X. (2024). Nutritiology And Proper Nutrition. // Texas Journal of Medical Science, 2024;28:21-23.
6. Шамуратова Н.Ш., Зокирходжаев Ш.Я., Рузметова Д.А. (2023). Жигарнинг сурункали касалликларидида диетотерапида маҳаллий маҳсулотлар қўллашнинг самараси (Doctoral dissertation, // Uzbek journal of case reports, Ўзбекистан 2023.

Qabul qilingan sana 20.02.2024